

This is not registered version of TotalDocConverter
Botinkavoy va Tuflioy o'zaro bog'lagan ayning ostidagina uchrashib qoldilar.

- Haliyam asfalni o'yib yuribsanmi, poshnangdan akang? - deya suqlanib gap otdi Botinkavoy.
- Bor-e! - nozlanib, burnini cho'chchaytirdi Tuflioy.- Azoyi badaningdan achigan paypoqning hiydi kelyapti. Nariroq tur.
- Ho'! Namuncha osmonlaysan? Sen amrikoni xiromlardan bo'lsang, bizam salamandirlardanmiz. Xo'jaynim katta bir zavo'dni guldiratib turibdi. Qasrdek idorasi bor.
- Bekamning idorasini oldida senlarniki bir chaqa. Xona tugul hatto yo'laklarimizgayam gilam to'shalgan.
- E-e, masalan, men mashinamizning ichidayam gilamni ezib turaman. Shuniychun doim top-tozaman... Xex-xex-xe, tunov kuni bir zoti past kalish loy ilashtirib chiqsa bo'ladimi? Achitibroq so'kay desang, xo'jayinning qaynanasiga qarashli narsa.
- Fu! Unaqa befahmlar navalom, - pistonchasini yarqiratib suzildi Tuflioy. - Ayniqsa, to'yga borsang, atrofingni bir zumda kalish bosadi. Biri burishgan, biri tirishgan...
- Ha, biz shukur qilishimiz kerak, - deb salmoqlandi Botinkavoy. - Harholda, obro'yimiz bor. Tunov kuni ziyofatdan qaytayotganimizda, xo'jayinning o'rinbosari meni artib qo'ydi.
- Voy! Shuyam obro'mi? Xi-xi-xi, xi-xi-xi... Agar bekam istasa, xo'jayiningga meni o'ptirishi mumkin. Qolaversa, ziyofatdan gapirib, maqtanishingni qara. Nima, seniham to'riga o'tirgizib, oldingga bedana kabob qo'yishdimi?
- Endi-i har kimning o'z o'rni bor-da, akasi bo'yidan. Mana, o'zing ham joyingni bilib turibsan-ku axir. Shu payt darvoza ochilib, hovliga so'laqmonday bir yigit kirib keldi. Majnuntol ostidagi so'richaga o'tirib, shumshayganicha sigaret tutatdi.
- Ana, haydovchimiz ham keldi, - deb ishora qildi Botinkavoy.
- Buyam o'zimizdan, - deya achinqiranib xo'rsindi Tuflioy. - Bu sho'rlik ham bizga o'xshab doim tashqarida qoladi.

1980